

O`SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVORINING SHAKILLANISH SABABLARI VA PROFILAKTIKASI

Nortoziyev Alisher Ulug`bekovich

O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3- kurs kursanti

Ilmiy rahbar: Mayor. O.A.Tursunova

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`smirlar o`rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi va buning natijada o`smirlar orasida jinoyatchilikning o`sib borayotgani. Ulardagi oilaviy, shaxsiy va maktab jamoasi o`rtasidagi muammolar natijasida jamiyatdan alamzadlik va o`rnatilgan qonunlar, ahloq-odob qoidalarini mensimaslik, ularni buzishga bo`lgan istak tufayli bolalar va o`spirinlarda deviant xatti-harakatlarning rivojlanishi kabi masalalar ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** Deviant xulq, o`smirlar, profilaktika, alkogolizm, narkomaniya, dezadaptatsiya, psixokorreksiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрено развитие девиантного поведения среди подростков и, как следствие, рост преступности среди подростков. В качестве результата проблем между семейным, личным и школьным сообществом рассматриваются такие вопросы, как неуважение к обществу и развитие девиантного поведения у детей и подростков из-за стремления нарушать установленные законы и правила этикета.

Ключевые слова: Девиантное поведение, подростки, профилактика, алкоголизм, наркомания, дезадаптация, психокоррекция.

Annotation: In this article, the development of deviant behavior among teenagers and, as a result, the increase in crime among teenagers. As a result of problems between family, personal and school community, issues such as disrespect for society and the development of deviant behavior in children and adolescents due to the desire to violate established laws and rules of etiquette are considered.

Keywords: Deviant behavior, teenagers, prevention, alcoholism, drug addiction, disadaptation, psychocorrection.

Kirish:

Maqolada o'smirlarning deviant xatti-harakatlarining oldini olishning turli shakllari muhokama qilinadi. Hozirgi kunda deviant xulq-atvorning sababi shundaki, o`smirlar ijtimoiy tabaqalanishini boshdan kechirishlari, oilaviy, shaxsiy va maktab jamoasi bilan bo`ladigan muammolar tufayli, ularda psixologik buzilishlar, asabiylik, uydan qochishlar va huquqbuzarliklar sodir etilmoqda. Agar o`smirning yuqoridagi muammolari hal etilmasa, ularda ko`cha muhitiga moslashuv, erta jinsiy tajriba,

narkomaniya, alkogolizm kabi salbiy illatlarni keltirib chiqaradi. Shubhasiz, bolalar va o'smirlarning deviant xulq-atvori muammosini hal qilishda etarli profilaktika ishlarini tashkil etmasdan sezilarli natijalarga erishish mumkin emas. Deviant xulq-atvorning oldini olish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Asosiy qism;

Hozirgi vaqtda o'smirlar deviant xatti-harakatlarning oldini olish bir qator sabablarga ko'ra eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, ko'p odamlarning turmush darajasining pasayishi, ijtimoiy institutlarning ta'sirini buzishi yoki zaiflashtirishi ya'ni oilalarning to'liq emasligi, nosog'lom muhitdagi oilalar, maktabdagi tarbiyasi og'ir o'smirlarning ta'siriga tushishi natijasida o'smirlarda kuzatiladigan turli nojo'ya xatti-harakatlar (ichkilikbozlik, narkomaniya, psixatrop moddalarga rujo qo'yish, huquqbuzarlik va jinoyatlar) sabab bo'lmoqda.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindoshurug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi.

Qadimgi yunon faylasyfi Arastu: «Barkamolikka erishgan odam barcha jonzotlardan yuqori yuqori turadi, ammo agar qonunlar va adolatga bo'ysunmay yashasa, hammasidan tubandir» deb yozadi.

O'smir yoshida oilaviy munosabatlarni sog'lomlashtirish ko'p jihatdan ota-onalarni psixologik-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini talab qiladi. Ayniqsa ota-onalar ibrat-namuna ko'rsatishlari, tarbiyada til va dil birligi bolada ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Bu o'rinda bolani nazoratsiz qoldirmaslik, bola bilan go'yo do'stona munosabat o'rnatish, uni eshitish, fikr mulohazalarini tahlil etish, xolisona baholash, kerakli o'rinlarda farzand bilan maslahatlashib, kelishib ish yuritish ota-onaning burchi hisoblanadi.

Izlanishlar natijasida shuni ko'rishiz mumkinki, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligiga sabab bo'ladigan quyidagi omillar aniqlandi:

- ota-onalar yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxslarda psixologik-pedagogik bilimning etishmasligi;
- voyaga yetmaganlarning axloqiy va huquqiy tarbiyasida muammolarning borligi;
- voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi kamchiliklarni o'z vaqtida o'rganib, oldi olinmaganligi;
- o'smirni noo'rin yoki bilib-bilmasdan jazolanishi;

- ▶ bolalarni ijtimoiy foydali bo`lgan turli xil mehnatlardan tobora uzoqlashuvi;
- ▶ bolani ortiqcha erkalatib yuborish «aytgani aytgan va degani degan holga kelib qolishi»;
- ▶ oilaviy muammolarning mavjudligi «oilaviy muhitning yaxshi emasligi, ishsizlik, ajralishlar, ko`chib yurish, yangi sharoitga o`smirni moslasha olmasligi, kasallik va iqtisodiy nochorlik kabilar»;
- ▶ voyaga yetmagan shaxsning himoyasizligi, ya'ni uni eshitmaslik yoki tushinishni istamaslik, uning muammolari echimiga qaratilgan to`g`ri yo`lni ko`rsatmaslik yoki yordam bermaslik;
- ▶ voyaga yetmagan shaxsni tengqurlari tomonidan kamsitilishi, tahqirlanishi, jismoniy ta'ziq o`tkazilishi va bunday muammoli holatlarni maktab ma'muriyatining bilmasligi yoki befarq qarashi;
- ▶ oila, o`quv muassasasi va mahalla o`rtasida o`zaro hamkorlikning yo`qligi yoki talab darajasida emasligi;
- ▶ oilada ota-ona va farzandlarning kelishmasligi, ota yoki onaning ichkilikka, giyohvand, psixotrop moddalarga rujo qo`yganligi yoki qo`sh xotinlik, onaning ahloqiy buzuvchiligi, boylik orttirishning ketidan quvish oqibatida o`zaro munosabatlarning nosog`ligi;
- ▶ bolani ortiqcha terlash, har xil og`ir jismoniy ishlarga jalb qilish oqibatida mehnatdan bezdirish, bolani yoshi, jinsiy va individual-ruhiy xususiyatlarini inobatga olmaslik;
- ▶ nazoratsizlik oqibatida bolani kriminal muhitiga tushib qolishi va hokazo.

O`zbekiston Respublikasi qonunlarida binoan 18 yoshga to`lmaganlar voyaga etmaganlar hisoblanadi. Qonunlarimiz insonparvarlik printsipligiga rioya qilgan holda, shaxsni 18 yoshgacha og`ir jazoga tortmaslikni nazarda tutadi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida alohida bo`lim va bob ajratilgan bo`lib, u - **«Voyaga yetmaganlarning javobgarligi»** deb ataladi. Jinoyat Kodeksining qator moddalarida voyaga etmaganlarning jinoyat sodir etishi va uni engillashtiruvchi holatlar belgilangan bo`lib, hatto voyaga etmagan shaxsni voyaga etgan shaxslar tomonidan tilanchlikka, spirtli ichimliklarni ichishga, giyohvandlik kishining aql-idroki hamda ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi moddalarni iste'mol qilishga jalb qilganligi uchun javobgarlik keltirib o`tilgan.

Quyida keltirilganlarni voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishlarida asosiy sabablar deb ko`rsatish mumkin:

- ◆ avloddan-avlodga o`tadigan nasliy (genetik) xususiyatlar, ya'ni qiziqonlik, engiltaklik, beparvolik, voqea-hodisalarning qay darajada tez yoki kech qabul qilib miyani ishlata olishi, ota-onaning jinoyatchilik sifatlarini bolalarga o`tishi;
- ◆ ota-ona yoki ularning o`rnini bosuvchi homiy, vasiylarning beparvoliklari;

- ◆ mahalla, maktab ma'muriyati va ustozlarning, jamoatchilikning farzandlar tarbiyasiga bo'lgan salbiy beparvo munosabatlari;
- ◆ yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli, ko'ngilli o'tkazishlari uchun etarli sharoitlarning etarli emasligi;
- ◆ kishi yashab o'sgan va tarbiyalangan muhit hamda yana shu muhitdagi ijobiy, salbiy hodisalarning shaxs ruhiyatiga ta'siri va shu muhit natijasida uning qay darajada (ya'ni odob-ahloqli yoki tarbiyasi og'ir bo'lib) shakllanganligi ;
- ◆ yoshlar ongida huquqiy bilim, malaka, ko'nikmalarning shakllanmaganligi, huquqbuzarlik, jinoyat, javobgarlik, jazo uning og'ir oqibatlarini bilmaslik, yoki aksincha huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega emasligi;

Voyaga yetmaganlarda yuqoridagi salbiy holatlarni bartaraf etish uchun ular bilan quyidagi psixoprofilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

• bolalarda ijtimoiy faollikning shakllanishini ya'ni

shaxsga xos ijtimoiy xususiyatlarning shakllanishi bo'lib, unda bolaning xulq-atvorida o'zgarishlar sezila boshlaydi. Bola o'z «men»idan tashqari oila, maktab va mahallasida ham u e'tibor qaratishi lozim bo'lgan shaxslar borligini, ularning manfaat va hayot tarzini ham hisobga olish lozimligini anglab eta boshlaydi. Bolada ijobiy o'y-hayol va o'z fikrini yuzaga chiqarish motivatsiyasi shakllanadi.

shaxslararo munosabatlarga daxldor bo'lgan maqsad va vazifalar bolani bezovta qiladi, oromini buzadi. Bola ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni bajarish ma'suliyatini his etadi. Jamoat va ota-ona topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z xatti-harakatini rejali boshqarishga, jamoa va oila manfaatiga mos ishlarni qilishga intiladi. Shaxslararo munosabatda o'z o'rni va mavqeini belgilashga kirishadi. Oilada o'ziga mos ishlarni bajarishni zimmasiga ola boshlaydi.

dastlabki ijtimoiy ko'nikmalar asosida o'z tevargi va atrof-olamida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar hamda yangiliklarga befarq qaramaslik, unga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zining ijobiy xulq-atvoriga asoslanib, jamiyat hamda tabiatga nisbatan subyektiv qarashlarning shakllanishida ko'rina boshlaydi. O'z kuchi va imkoniyatini yanada oshirib borishga, o'qib – o'rganish hamda izlanishga kirishadi. Bahs-munozaralarga o'z nuqtai nazarini himoya qilishga intiladi. Ilg'or fikrlar bildirib, jamoada etakchilik qilishga, obro' qozonishga harakat qiladi.

ijtimoiy faollik ko'nikmalarining asta-sekin rivojlanib borishi (jamoat manfaatini o'ylash, ijtimoiy foydali mehnatda o'zini ko'rsata olish, samara beradigan ijobiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, ijodkorlik ko'nikmalarining shakllanishi, boshqalarga o'z fikr-mulohazalarini ma'qul kelishi, tadbirkor bo'lishga intilish va hakazo);

kasbga qiziqish motivlarining shakllanishi (sevimli o'qituvchisiga taqlid qilish, fanlarga qiziqish, ilg'or kasb egasiga xavas qilish, ota-onasining kasbiga qiziqish kabilar). Bu o'rinda ota-onalarni o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolani kasbga

qiziqishlarini boshqarish, ya'ni ongli va asosli ravishda kasb tanlash motivini shakllantirish o'quvchida mustaqil fikr yuritish va shu asosda o'zidagi individual imkoniyatlarni qobiliyat darajasida yuzaga chiqishga olib kelish mumkin.

Xulosa:

O'smir yoshida oilaviy munosabatlarni sog'lomlashtirish ko'p jihatdan ota-onalarni psixopedagogik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini talab qiladi. Ayniqsa ota-ona o'zlarini ibrat-namuna qilib ko'rsatishlari, tarbiyada til va dil birligi bolada ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Bolaning jinoyatchi bo'lishida, uning qonunga nisbatan ijobiy yoki salbiy yondoshishida ota-onasining, ustozlarning tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda bolani nazoratsiz qoldirmaslik, bola bilan go'yo do'stona munosabat o'rnatish, uni eshitish, fikr mulohazalarini tahlil etish, xolisona baholash, kerakli o'rinlarda farzand bilan maslahatlashib, kelishib ish yuritish nafaqt ota-onaning balki butun bir jamiyatning burchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
3. Gromova O. N. Konfliktologiya. M.: (Izd-vo) 1993.
4. G'oziev E.F. —Psixologiyall. Toshkent 1994.
5. I.M. Hakimova — “Deviant xulq-atvor psixologiyasi” (o'quv qo'llanma)
Toshkent – 2014
6. www.tatu..uz